



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-6, (June) 2024
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

BOYDEDAYEV Dostonbek Xusniddin o'g'li
Namangan davlat universiteti
"Tarix yo'nalishi" talabasi

NURMATOV Akramjon Rahmanaliyevich
University of business and science
tarix f.b. (PhD)

TAKASH DAVRIDA XORAZMSHOHLAR DAVLATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'rta asrlarning eng qudratli mamlakatlaridan biri hisoblangan Anushteginiylar davlatining yirik vakillaridan biri Takash davrida amalga oshirilgan ishlar, ulug' davlatchilik siyosati va mamlakat hududini kengaytirish uchun olib borilgan harakatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Anushteginiylar, Xorazmshohlar davlati, Takash, Elarslon, Sultonshoh Mahmud, Badriddin Chaqir, Jand, Nishopur, qoraxitoylar, An-Nosir, xalifa, To'g'ul III.

ГОСУДАРСТВО ХОРАЗМШАХА В ПЕРИОД ТАКАШ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о работе, проделанной во времена Такаша, одного из великих представителей государства Ануштегини, считающегося одной из самых могущественных стран Средневековья, политике великой государственной мудрости и действиях, предпринятых для расширения территории страны.

Ключевые слова: Ануштегини, государство хорезмшахов, Такаш, Еларслан, Султаншах Махмуд, Бадриддин Чакир, Джанд, Нишапур, Карахитайцы, Ан-Насир, халиф, Тогрул III.

THE STATE OF THE KHORAZMSHAH IN THE TAKASH PERIOD

ANNOTATION

This article talks about the work done during the time of Takash, one of the great representatives of the Anushtegini state, which is considered one of the most powerful countries of the Middle Ages, the policy of great statesmanship and the actions taken to expand the territory of the country.

Key words: Anushtegins, Khorezmshahs state, Takash, Elarслан, Sultanshah Mahmud, Badriddin Chakir, Jand, Nishapur, Karakhitays, An-Nasir, caliph, Togrul III.

Kirish

Xorazmshohlar davlatining saljuqiylar davlatidan to'liq ajralib chiqish jarayoni birdaniga sodir bo'lmagan, albatta. Anushteginiylar sulolasining taxtga kelgan vakillari mustaqillik uchun tobora ko'proq harakat qilishardi. Bu jarayon ayniqsa Otsiz va uning o'g'li El Arslon davrida jadallashadi va ularning olib borgan siyosati natijasida Xorazmdagi vaziyat ancha qulaylashadi. El Arslondan keyin taxtga kelgan o'g'li Takash ham ajdodlari olib borgan siyosatning davomchisi bo'ladi.

Uning hukmronlik yillarida Xorazmshohlar davlatida sodir bo'lgan jarayonlarni ushbu maqolada tahlil qilamiz.

Asosiy qism

Xorazmshoh Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi [1].

Otsizning siyosatini uning vorislari Elarslon (1156-1172), Sultonshoh Mahmud (1172) va Takash (1172-1200) davom ettiradilar [2].

Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193-yillarda Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi. Agar Otsiz Xorazmning chinakam mustaqilligiga va ulug' davlatchilik siyosatiga zamin yaratgan bo'lsa, Takash o'z imperiyasining haqiqiy asoschisi deb tanilgan [3].

Lekin Xorazmshohlarning zabardast siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishiga to'siq bo'layotgan ayrim jihatlardan biri bor edi. Ulardan biri ichki nizo va ziddiyatlar edi. Elarslondan so'ng uning o'g'illari Aloviddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida 20 yildan ortiq vaqt davomida taxt uchun kurash kichadi [4].

Har ikkovi ham goh qoraxitoylarga, goh Hirotdan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududda hukmronlik qilgan g'uriylar sulolasiga, goh Xuroson amirlariga suyangan holda o'zaro kurash olib borganlar. Ushbu jarayonlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Takash- Alouddin Muhammad Xorazmshoh (to'liq ismi Alouddin Takash ibn Elarslon ibn Otsiz ibn Anushtegin) (taxminan 1152-1200)- anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlatining hukmdori [6].

Uning ismi Takash, Tekesh, Tekish kabi holatlarda uchraydi.

Xorazmshoh Elarslon vafoti arafasida katta o'g'li Oloviddin Takish Jand viloyatida bo'lgani bois, kichik o'g'li Sultonshoh Mahmudni valiahd etib tayinlagan edi [5].

Elarslon vafot etgach, aka-ukalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Sultonshoh Takashni o'z huzuriga majburlab olib kelishga va hokimiyatini tan oldirishga harakat qiladi. Lekin bu harakatlari natijasiz qoladi.

Takash Jandni tark etib, qoraxitoylar malikasi Chen Tiyonga murojaat qildi. Takash keyinchalik ham qoraxitoylarga o'lgan to'lab turishga vada bergach, Fuma boshchiligidagi qo'shin Xorazmga keladi. Bundan xabar topgan Sultonshoh tezda Xurosonga chekinadi. Takash esa 1172-yil 11-dekabr kuni rasman xorazmshohlar taxtiga o'tirdi. Uni xalq qo'llab-quvvatlagan, chunki xalq Takashning kuchli davlat arbobi va yetuk shaxs ekaniga ishonardi. Lekin aka-ukalar o'rtasidagi taxt mojarosi 20 yil davom etdi. O'zaro kurashga Nishopur hokimi Oy Abo, G'ur sultoni G'iyosiddin va qoraxitoylar aralashib turishgan.

Hokimiyatni olishda Takashga ko'maklashgan qoraxitoylar bundan buyon Xorazmda xohlaganlarini qila olishlariga ishonishdi, buning natijasida ayrim nomaqbul ishlarni amalga oshirishdi. Bunday holat Takashga maqul kelmaydi va ularga qarshi chora ko'rish haqida o'ylay boshlaydi. Natijada qoraxitoylar bilan munosabatlar yomonlashadi. Bunday vaziyatdan foydalanib qolmoqchi bo'lgan Sultonshoh G'iyosiddindan harbiy ko'mak oladi. Takash bilan aloqalar uzilgani uchun qoraxitoylar malikasi Xorazmga o'z qo'shinini jo'natdi.

Takash bu to'qnashuvga jiddiy tayyorlandi, xatto Gurganjga boradigan yo'llarni suvga bostirdi, qal'alarni mustahkamladi. Fuma xorazmliklar Takashni qo'llab-quvvatlayotganini ko'rganidan so'ng, o'z qo'shini bilan ortga qaytib ketadi. Sultonshoh esa qoraxitoylardan iborat qo'shini bilan Marv, Tus, Jom, Niso, Obivard kabi hududlarni egallab oldi. Vaziyatning xavfli ekanini tushungan Takash dastlab Nishopurni egallash muhim ekanligini tushunib yetadi. Takash avval Nishopurni tinch yo'l bilan olmoqchi bo'ladi. Lekin Nishopurning o'sha paytdagi rahbari xiyonatkorona yo'l tutadi. Natijada 1187-yil 27-may kuni 40 kunlik qamal natijasida Nishopur taslim bo'ladi [5].

Nishopurga xorazmshohning o'g'li Nasriddin Malikshoh hokim bo'ldi. Ammo Marv, Sabzavor kabi hududlar xali ham Sultonshoh qo'lida edi. Takash vayron bo'lgan Nishopurni tiklab, qo'shini bilan Kaspiyning janubidagi Mozandaronga yurish qildi.

Bu harbiy kurashlar Takashning hukmdor bo'lishga munosib ekanini ko'rsatdi, buni xurosonlik amirlar ham tan oldilar. Endi Sultonshohning kelishishdan boshqa iloji qolmadi. 1188-yil bahorida aka-ukalar o'rtasida sulh imzolandi. Tashqi tayanchlaridan ayrilgan Sultonshoh inisining shartlariga so'zsiz ko'nishga majbur edi [5].

Unga Xurosondagi 3 ta viloyat berildi. 1189-yil 4-iyulda Xurosondagi Rodkon nomli yerda Oloviddin Takashning rasman sulton maqomida taxtga o'tirish marosimi bo'ldi.

Takash poytaxtga qaytishi bilan inisi yana isyonni boshlaydi. G'uriylar va qoraxitoylar bilan hamkorlik qildi, ularni yordamida Xurosonga yurishlar qildi, Takash yo'qligida Gurganjni ham qamal qildi. Takash bunga javoban yana Sultonshohga qarshi yurish boshladi, bu safar sulh tuzish imkoni bo'lmadi. Sultonshohning so'nggi ishongan vakili Saraxs qal'asi boshlig'i Badriddin Chaqir edi, lekin u Takash tomonga o'tib ketadi va qal'a kalitlari bilan Sultonshoh xazinalarini Takashga topshiradi. 1193-yil 19-sentabrda esa Sultonshoh vafot etishi bilan bu qarama-qarshilik yakunlandi [5].

Takash 1193-yildan boshlab asosiy urg'uni tashqi siyosatga berdi. Takash o'z chegaralari daxlsizligi yo'lida Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi muhim istehkomlardan biri Barchinlig'kent, Raboti To'g'on shaharlarni o'z davlatiga qo'shib oldi. Buxoroda uning nomi xutbaga qo'shib o'qilishi natijasida Movarounnahrda ham ta'siri yoyila boshladi.

1192-1193-yillarda Iroq saljuqiylari sultoni To'g'ul III Takash bilan yaxshi munosabatni saqlash uchun uning o'g'li Yunusxonga o'z qizini va Ray viloyatini berib, sulh tuzgan [7].

Lekin vaqt o'tishi bilan To'g'ul III sulhni buzishi hamda Bag'dod xalifasi boshqaruvidagi hududlarga tajovuz qilishi xalifa an-Nosir va Takashni yaqinlashtirdi. Xalifa Takashdan yordam so'radi va To'g'ul III qo'l ostidagi yerlarni Takashga iqto sifatida berilgani haqida farmon jo'natdi. Takash huzuriga To'g'ul III dan norozi bo'lgan qator harbiylar kelib qo'shiladi.

1194-yil martda ikki o'rtada jang bo'ldi va unda Takash g'olib bo'ldi, To'g'ul III xorazmshohlar qo'shini tomonidan o'ldirildi. Hamadon va unga tutash yerlar Takash qo'lga o'tdi. Egallangan yerlardan ulush olmagan xalifa Takashdan norozi bo'ladi. Natijada munosabatlar buziladi. Takash xalifadan Xorazmshoh hukmronligini tan olish va Bag'doddagi sulton saroyini saljuqiylar davridagi holda tiklashni talab etadi. Kutilganidek xalifa bunga rozi bo'lmaydi.

Xalifalik bilan munosabatlardagi sovuqchilik mo'g'ul bosqiniga qadar ham yakun topmadi. Lekin Takashning Erondan uzoqda bo'lishi xalifaga qo'l keldi. Xalifa Iroq Ajamini egallab, Ray viloyatini ham qo'lga kiritdi.

Elchilik aloqalaridan foyda yo'qligini tushungan Takash o'z davlati manfaati yo'lida xalifalikka qarshi qat'iy harakatlar boshladi. 1196-yil xalifa qo'shinlari yengilib, Hamadon, Ray, Isfahon va unga tutash yerlar yana Xorazmshohlar davlatiga qo'shildi. Xalifa Takashga avval Mayochoqni, keyin G'iyosiddin al-G'uriyni qarshi qo'yishga intildi, bu harakat ham foyda bermagach, kelishishga majbur bo'ldi. 1198-yil Takash Xuroson, Turkiston va Iroq Ajam sultoni ekanligi tan olingan farmon e'lon qilindi.

O‘zaro kurashlardan charchagan Kirmon Takashdan yordam so‘radi. Takash 1198-yilda u yerda tinchlik o‘rnatib, o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi. Umrining oxirini tinchlikka xavf soluvchi ismoiliylar diniy guruhi bilan kurashda o‘tkazib, Eronning Daylam viloyatidagi ismoiliylarning ikkinchi muhim qal‘asi Al-Qohirani egalladi.

Takash 1200-yil 3-iyul kuni Xurosonning Shahrison degan joyida vafot etdi. Jasaki Gurganjga keltirilib, o‘zi qurdirgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn etildi.

Takashning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiasiga ko‘rsatilgan homiylik bo‘lgan [8].

Uning rafiqasi xayrixohligidan foydalangan qipchoqlar davlat masalalariga tobora ko‘proq aralashishga intilishgan va bu hodisa ichki birlikka putur yetkaza boshlagan. Ushbu jarayonning natijasi esa Takashning o‘g‘li Aloviddin Muhammad hukmronligi davrida yaqqol ko‘rindi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xorazmshoh Takash o‘z davrining yetuk va salohiyatli hukmdorlaridan bo‘lgan. Chunki u kezi kelganda sabrli bo‘lishni va kezi kelganda agressiv harakat qilishni o‘z o‘rnida bajardi. Agarda o‘z inisi bilan raqobatda sabrli bo‘lmasdan, shoshqaloqlik qilganda, balki qoraxitoylar yoki xalifalik bundan foydalanib qolardi hamda Takashni o‘z ta‘siri ostiga olishga erishgan bo‘lard.

Lekin Takash bunday oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati natijasida ham inisini yengdi, ham o‘zini xorazmshohlarga do‘stdek qilib ko‘rsatayotgan tashqi dushmanlarni ham tor-mor etgan holda davlatining nufuzini yanada yuksaklarga ko‘tardi. Natijada ham hududiy, ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham harbiy jihatdan ulkan saltanatni o‘z avlodlariga, asosan Qutbiddin Muhammadga meros qilib qoldirdi. Ajdodlari boshlab bergan ulug‘ davlatchilik siyosatini munosib davom ettirgani Takashning davlatchiligimiz oldidagi ulkan xizmatidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Азамат Зийо. Узбек давлатчилиги тарихи (Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар). –Т.: шарк, 2001. –368 б.
2. Жабборов И. Буйук Хоразмшоҳлар давлати. – Т.: шарк, 1999. –144 б.
3. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XV asrgacha). –Т.: Sharq, 2017. –160 b.
4. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. –Т.: VNESHINVESTPROM, 2019. -637 b.
5. O‘roqov D., Sharopov A. O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma. –Т.: Akademnashr, 2013. –657 b.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Takash> 29.09.2023.
7. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/uzbekiston-hukmdorlari/takash> 29.09.2023.
8. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/80> 29.09.2023.